

TASAVVUFIY RUH VA QIZ MEHRINING IFODASI: “ME’ROJNOMAYI TURKIY”DA BIBI FOTIMA MUNOJOTI

Latipova Saodat A'zamovna

BuxDU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik magistrant

Buxoro universiteti, Buxoro, O'zbekiston,

saodatlatipova43@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada Buxoro adabiy muhitida saqlanayotgan “Me’rojnoma turkiy” asarining Hazrati Bibi Fotimaning otalariga qilgan munojoti bobi tahlil qilinadi. Unda Bibi Fotimaning ruhiy kechinmalari, otaga bo’lgan samimiy mehr-muhabbati hamda otalariga nisbatan murojaati yoritiladi.

Kalit soʻzlar: Me’rojnoma turkiy, Hazrati Bibi Fotima, munojot, marsiya, tasavvuf, ota-farzand munosabatlari

“Me’rojnoma turkiy” asari hozirgi kunda Buxoro davlat muzey-qoʻriqxonasi huzuridagi “Hujjatlar” fondida 23497/ 11 inventar raqami ostida saqlanadi. Asar 47 sahifadan iborat. Asarni shartli ravishda 2 bobga ajratib olishimiz mumkin:

1. Me’rojnoma qismi.

2. Rasul alayhisalomning vafotlari bayoni va Hazrati bibi Fotima roziyallohu anhoning mahzunliklari va vafotlari.

Hazrati paygʻambarimiz Muhammad sollolohu alayhi vasallam bizga naqadar qadrlil boʻlganlaridek, ularning hayotlarida Fotima roziyallohu anho shunday oʻringa ega edilar.

“Me’rojnoma turkiy”da Muhammad sollolohu alayhi vasallamning hayotlari tugagandan soʻng ul zot uchun eng yaqin kishi boʻlmish – Fotima roziyallohu anho bilan bogʻliq tasvirlar beriladi. “Qissayi vafoti bibi Fotimayi Zahro roziyallohu anho” sarlavhasi ostida bibi Fotimaning otalarining kasalliklari va oʻlimidan chuqur iztirobga tushgan holatlari bayon etilgan. Bu holatlar sheʼriy uslubda yozilgan boʻlib, unda ramziy obrazlar, badiiy vositalar keng qoʻllangan. Bu esa oʻquvchilarda Fotimaning ichki kechinmalarini chuqurroq his etishga yordam beradi. Misralarda qadimgi turkiy til unsurlari, arabcha va forsa soʻzlar keng qoʻllangan. Bu holat asar yozilgan payt tilining koʻp qatlamli ekanini koʻrsatadi. Shuningdek, keltirilgan badiiy vositalar, masalan, tashbeh, istiora va boshqa sanʼatlar matnning estetik qiymatini oshiradi.

*Kel ey nozim, soʻzingni durafshon qil,
Vafoti Fotimani sen bayon – bayon qil.¹*

¹ Me’rojnoma turkiy. Toshbosma. 1914. Buxoro davlat muzey-qoʻriqxonasi “Hujjatlar” fondi. 23497/ 11.- B 28.

“Hazrati bibi Fotima raziyallohu anhonig otalariga munojoti” bobi mazkur satrlar bilan boshlanadi. Ko‘rinib turibdiki, bu misralar shoir yoki rivoyat qiluvchi(nozim)dan voqeani chiroyli va ravshan bayon qilishi so‘ralmoqda. “Durafshon” so‘zi “poqloq, ziynatli” ma’nosida kelgan bo‘lib, shoirdan mazmunan va badiiy jihatdan boy matn yozishi talab qilinmoqda.

*Payg‘ambar holati og‘ir chog‘ida,
Chidolmay Fotima bo‘ldi yig‘ida.²*

Chuqur g‘am va iztirob motivi aks etgan bu misralarda Muhammad sollolohu alayhi vasallamning so‘nggi onlari tasvirlanib, bunda Fotima o‘z otasining ahvoliga chiday olmay, ko‘z yosh to‘kmoqda. “Qizing aylansun, jamoling vasfidur shamsi qamar” misrasida esa Fotimaning otasiga bo‘lgan hurmat va ehtiromi, otasining chiroyini quyosh va oy nurlari bilan taqqoslash orqali go‘zallikni tasvirlash kerakligini ko‘rishimiz mumkin.

“Me’rojnomyai turkiy”ni tahlil qilish jarayonida Qur’on oyatlariga duch kelamiz. Bu bobda ham shu tasvir davom etgan. Payg‘ambarimizning go‘zalliklari Qur’oni Karimdagi oyatlar bilan bog‘liq holda beriladi:

*Surayi Vas Shams erur avsofi husni ro‘ylari,
Ham yana Val Layn dur ta‘rif sunbuli mo‘ylari.³*

“Surayi Vas Shams – Shams surasi quyoshga qasam ichilgan sura bo‘lib, bu yerda payg‘ambar yuzining yorqinligi bilan bog‘liq talqin berilgan.

“Val Layn” – Layl surasi kechaga qasam ichilgan sura bo‘lib, u payg‘ambarimizning sochlariga ishora qilmoqda. “Sunbuli mo‘ylari” – ya’ni, payg‘ambar sochlari xuddi bug‘doy boshloqlariga tashbeh qilingan. Bu san’at anchagina o‘rinlarda uchrashi mumkin. Jumladan,

*Oq gul og‘zingizdan to‘kuldi ham qizil gul huvlaring,
Munda tashlab bizni aylarsiz qay-u jonib safar⁴*

satrlarida Payg‘ambar sallolohu alayhi vasallamning so‘zlari oq gulga, lablari esa qizil gulag o‘xshatilmoqda. Bu tashbeh ul muborak zotning og‘izlaridan chiqqan so‘zlarning pokligi va nafosatini belgilaydi.

Hazrati Fotimaning otalari bilan suhbat shu tarzda bayon etib, uni o‘qish barobarida otalari qizlari bilan yaqin vaqt oralig‘ida ishora qilib ketganlariga guvoh bo‘lamiz:

*Yana sizga maxolis bir so‘zim bor,
Bu so‘zni aylamang, hech kimga izhor.
Tavaqquf aylangiz, har olti oyga
Ki ondin so‘ng bo‘lursiz bizga birga.⁵*

² Me’rojnomyai turkiy. Toshbosma. 1914. Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi “Hujjatlar” fondi. 23497/ 11.- B 29.

³ Me’rojnomyai turkiy. Toshbosma. 1914. Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi “Hujjatlar” fondi. 23497/ 11.- B 30.

⁴ Me’rojnomyai turkiy. Toshbosma. 1914. Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi “Hujjatlar” fondi. 23497/ 11.- B 30.

⁵ Me’rojnomyai turkiy. Toshbosma. 1914. Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi “Hujjatlar” fondi. 23497/ 11.- B 30-31.

Payg'ambar alayhissalom Fotimaga muhim bir sir haqida aytmoqchilar. Bularni o'qir ekanmiz, Fotima olti oy sabr qilishi kerakligini anglaymiz. Bu bilan Rasul alayhissalom Fotimaning ham vafoti yaqin ekanligiga, olti oydan so'ng esa jannatda Fotimani o'zlari bilan birga hamroh bo'lishlari haqida ishora qiladilar.

Misralar orasida Fotimaning o'g'illari haqida ham aytib o'tilgan:

Dedi shahzodalar: Qayda borursiz,

Ki bir o'g'lonlaringiz na qilursiz? ⁶

Bunda Fotimaning o'g'illari – Hasan va Husan onasidan u vafot etsa, ularni keyin kim parvarish qilishi haqida so'rayapti. Bu yerda esa ona va farzand orasidagi chuqur hissiy bog'liqlik va ajralish fojiasi aks ettirilgan. Onaning o'g'illariga tasalli berishi asarning ona va bola o'rtasidagi mehrni ifoda etyapti:

Bobongiz intizor manga turubdur,

Taom olib behishta o'lturubdur. ⁷

Bobo – Muhammad sallolohu alayhi vasallam Fotimani jannatda kutmoqda. Bu tasvirlar esa Qur'onda jannat ne'matlarining zikr qilinishiga o'xshaydi. Bu bilan Fotima o'z vafotidan qo'rqmayotgani va jannatga borishga tayyor ekanini anglatmoqda. Bunga yaqin ma'lumotlar yana bir qancha manbalarda o'z aksini topgan. Jumladan, "Hijratning o'n ikkinchi yilida Rasullolloh sollalohu alyhi vasallam oltmish yoshdan o'tgandilar. Bir kuni betoblanib qoldilar. Boshlariga qattiq og'riq kirdi. Otalarining chekayotgan iztiroblari Fotima onamizni juda qayg'uiga solar va "Voh, otajonim!" deb qayg'ularini oshkor etardilar.

Rahmat va shafqat Payg'ambari sollallohu alayhi vasallamning ahvollari ancha og'irlashganini his etib, qizlari Fotimani huzurlariga chaqirdilar. Otajonining isitmadan lov-lov yonayotganlarini ko'rgan Fotimani Zahro onamiz:

– Voh, otajonim! Voh, Payg'ambar otajonim! – dedilar. Qalb iztiroblarini shu tarzda izhor etdilar.

Ikki Olam Sarvari sollallohu alayhi vasallam yakka-yu yagona dilbandlarining boshini o'zlari tomon egib, qulog'iga bir narsalarni shivirladilar. Fotima onamiz yig'lay boshladilar.

Biroz o'tib, yana sevimli qizlarining qo'llaridan tutib, o'zlari tomon tortdilar va yana quloqlariga bir gap aytdilar. Bu safar Fotimayi Zahro onamizning chehralarida tabassum paydo bo'ldi.

Bir chehrada qisqa fursat oralig'ida qayg'u bilan sevinchning ifodalanishiga ajablangan Oisha onamiz:

– Ey Fotima! Sizni avvaliga yig'latib, so'ngra kuldirgan nima edi? – deb so'radilar. Fotima onamiz bu haqida hozir ma'lum qilmasliklarini aytib, uzr so'radilar.

⁶ Me'rojnomayi turkiy. Toshbosma. 1914. Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi "Hujjatlar" fondi. 23497/ 11.- B 32.

⁷ Me'rojnomayi turkiy. Toshbosma. 1914. Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi "Hujjatlar" fondi. 23497/ 11.- B 33.

Keyinroq ularning ma'lum qilishicha, Rasullulloh sollallohu alayhi vasallam va Fotimayi Zahro onamizning o'rtalarida quyidagicha suhbat bo'lib o'tgandi:

Sarvari olam sollallohu alayhi vasallam qizlariga:

– Do'stim Jabroil mendan Qur'oni karimni har yili bir marta xatm qilib berishimni so'rardi. Bu yil ikki marotaba bo'ldi. Bundan shuni angladimki, ajalim yaqinlashmoqda, – deb marhamat qilgandilar.

Fotima onamiz bu mash'um xabarni eshitishlari bilanoq yig'lay boshlagandilar. Habibi Akram sollallohu alayhi vasallam bu qayg'uli xabar ortidan qizlarini ovutish, ularning sabr-u bardoshlarini orttirish maqsadida xushxabar ham aytgandilar:

– Ahli baytim ichida sen menga birinchi bo'lib yetishasan, - deb marhamat qilgandilar.⁸

Ko'rinadiki, ushbu ma'lumotlar “Turkiy me'rojnomasi”da keltirilgan fikrlarni tasdiqlaydi. Asarda Fotima roziyallohu anho otasining vafotiga chiday olmay, ko'z yosh to'kayotganini ko'ramiz:

*Payg'ambar holati oxir chog'ida,
Chidolmay Fotima bo'ldi yig'ida.
Judoliqg'a yo'q erdi anda toqat,
Urar erdi o'zin soat ba soat.
Ali ko'rdiki, yig'laydur bag'oyat,
Ko'z uchida anga qildi siyosat.
Payg'ambar bildilar ushbu rumuzni,
Qarottilar Ali sori ko'zini.*⁹

Fotima otasidan ajralish azobi naqadar og'ir ekanini his qilib, tinmay yig'laydi. Bu o'rinda Fotimaga asosiy yordamchi, tasalli beruvchi – uning umr yo'ldoshi Ali raziyollohu anhu bo'ladi. Ali (r.a) Fotimaning bunday iztirobini ko'rib, unga taskin berishga harakat qiladi. Biroq Payg'ambar sallollohu alayhi vasallam bunga ruxsat berib, Fotimaning o'z iztirobini to'liq his qilishiga imkon beradi. Chunki bu firoqning og'irligini his qilish tabiiydir. Rasul alayhi vasallam qizlarining holatini to'g'ri tushunib, unga oxirgi vasiyatlarini aytadilar. Qizlari Fotima endi o'zlarining qaytib kelmasliklarini, qizlari bundan keyin unga faqat oxiratda yetisha olishini tushuntiradilar, “Giryaning sunnat ekanini” uqtiradilar. “Ato-onaga girya bo'ldi sunnat” misrasi shundan dalolat beradiki, ota-ona vafot etganda ularning farzandlari uchun qayg'u tabiiydir va bu holat insoniy tuyg'ularning bosh qismi sanaladi. Yig'lash rahmat dunyosidan ekanligi ta'kidlanadi, ya'ni ko'z yoshi faqat dardning ifodasi emas, balki Allohning rahmatidan ham dalolatdir.

⁸ Abdukamol Abduljalilov. Fotima roziyallohu anho. "Credo Print group" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2024. 128b. 83-86-bet

⁹ Me'rojnomayi turkiy. Toshbosma. 1914. Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi "Hujjatlar" fondi. 23497/ 11.- B 32.

Xulosa qilib shui aytish mumkinki, Payg'ambar sallolohu alayhi vasallamning so'zlari Fotimaga tasalli emas, balki uning iztirobini yanada kuchaytiradi. Sababi u otasining vafotidan keyin yana ham chuqur iztirobga tushadi.

Yuqorida satrlardan ko'rinadiki, ayriliq va insoniy iztiroblar birga yuradi. Ular misralarda ifodalanganidek sabr, taqdir va oxiratga bo'lgan ishonchni ta'kidlovchi tasavvufiy ma'nolarni ham o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири (Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур). -Тошкент, 2004.
- 2.Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф “Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси” 2023. “Ҳилол”нашриёт-матбааси, 3-жуз
3. Me'rojnomayi turkiy.Toshbosma.1914.Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi “Hujjatlar” fondi. 23497/ 11.
4. Бухорий “Ал-жомиъ ас-саҳиҳ”, 3-китоб, Тошкент-1991.
5. Abdukamol Abdujalilov. Fotima roziyallohu anho.”Credo Print group” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.2024.
- 6.Nurdan Damla. Suyuklimiz gulg'unchasi. Hazrati Fotima roziyallohu anho. Toshkent. Munir nashriyoti. 2024.